



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SINTAKSIS BO'LIMI VA SO'Z BIRIKMASINING O'QITILISHI

Xurshida Mardiyeva Tolibjon qizi
Samarqand davlat universitetining
Kattaqo'rg'on filiali talabasi
E-mail: xurshidamardiyeva.2@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf "Ona tili" darsliklarida sintaksis, so'z birikmasi va bog'lanish usullarining o'rgatilishi va ularning tahlili haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье говорится об обучении синтаксису, способам словообразования и связи и их анализу в учебниках 8-го класса «Родной язык» общеобразовательной школы.

Annotation: this article talks about the teaching of syntax, word formation and connection methods and their analysis in the 8th grade "Mother Tongue" textbooks of the general secondary school.

Kalit so'zlar: Sintaksis, sintaktik aloqa, sintaktik munosabat, so'z birikmasi, moslashuv, bitishuv, boshqaruv, tobe so'z, hokim so'z, teng bog'lanish, 4 kompetensiya: o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish, gapirish.

Ключевые слова: Синтаксис, синтаксическая связь, синтаксическая связь, словосочетание, адаптация, согласие, контроль, подчинённое слово, управляющее слово, равноправная связь, 4 компетенции: понимание прочитанного, понимание аудирования, письмо, говорение.

Key words: Syntax, syntactic relation, syntactic relationship, word combination, adaptation, agreement, control, subordinate word, governing word, equal connection, 4 competences: reading comprehension, listening comprehension, writing, speaking.

Bugungi kunda ta'limda mazmun masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ona tili fani tayanch vazifasini o'tamoqda. Har qaysi davr taraqqiyotida "Nimani o'qitish, kimga o'qitish, qachon o'qitish, qanday o'qitish kerak?" kabi savollar o'z javobini izlamoqda. Zamon talablaridan kelib chiqib, o'zbek tili ta'limi oldiga kattadan katta, ayni paytda juda muhim vazifalar qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni milliy tilimizning nufuzi,



uning o'qitilish sifatini oshirishni taqozo qiladi. Ta'lim mazmuni ham endi shunga qaratilgan bo'ladi, endi maktab o'quvchilari mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlashga orgatiladi, darsliklardagi o'quv materiallari ham kreativ fikrlashga yo'naltiriladi. Hamda yangi darslikdagi mashq, topshiriqlar to'rt kompetensiya: o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish, gapirishni o'stirishga qaratilgan.

O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.[1.] O'z tilini sevuvchi, qadrllovchi barkamol avlodni voyaga yetkazish bosh maqsadimizdir. Bu borada pedagoglarga katta mas'uliyat yuklangan. Shuning uchun nimani o'qitish kerakligini tahlil qilmoq joizdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar "Sintaksis" bo'limi mavzulari yuzasidan, xususan, 8-sinfda ham ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ushbu bo'limda o'quvchilar mantiqli, izchil, grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuza olish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, quyidagi mavzularga to'xtalib o'tilgan.

3-BO'LIM

SINTAKSIS, OHANG, VA TINISH BELGILARI

*Sintaksis haqida umumiy tushuncha, So'z birikmasi

*Teng va tobe bog'lanish

*So'z birikmasi va so'zlar qo'shilmasi, qo'shma so'z

4-BO'LIM

*Gapning ifoda maqsadi

*Gapning tuzilishiga ko'ra turlari

5-BO'LIM

SODDA GAP SINTAKSISI

*Sodda gap. Gap bo'laklari

*Kesim. Fe'l kesim va ot kesim

*Sodda kesim va murakkab kesim

*Bog'lamalar

*Kesimning birikma va ibora bilan ifodalanishi

*Ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi

*Ega

*Egali va egasiz gap



*Atov gap

*So'z gap

*Yig'iq va yoyiq gap

6-BO'LIM

IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

*Hol

*To'ldiruvchi

*Aniqlovch va uning turlari

*Gap bo'laklari tartibi

*Gap urg'usi

*To'liq va to'liqsiz gaplar

7-BO'LIM

UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR, GAP BO'LAKLARI
BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO'LAKLAR

*Gapning uyushiq bo'laklari

*Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z va unda ohang hamda tinish belgilari

*Ajratilgan bo'lakli gaplar

*Ajratilgan bo'lakli gaplarda ohang va tinish belgilari

*Kiritmalar (Kirish so'z)

*Undalma

*Undalmalarda tinish belgilar

Amaldagi darslikda Sintaksis, ohang va tinish belgilari bo'limiga 4 soat ajratilgan. Dastlab, Sintaksis haqida umumiy tushuncha. So'z birikmasi mavzusi berilgan.

---Sintaksis. "Sintaksis" grekcha so'z bo'lib, birlashtirmoq, yopishtirmoq degan ma'nolarni anglatadi. Sintaksis grammatikaning bo'limlaridan biri bo'lib, so'zlarning va gaplarning o'zaro aloqasini, so'z birikmalari va gaplarni tashkil etgan bo'laklarning xususiyatlarini o'rganadi.

Gap, aslida, so'zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so'zning bog'lanish qonuniyati, so'z birikmasi ham sintaksisda o'rganiladi. So'z birikmalarini o'rganish gap ta'limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so'zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvning lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo'sindagi so'zning birikuvi bo'lgan qo'shma so'z (uchburchak, ertapishar, sotib olmoq), frazeologik birlik (ilonning yog'ini yalagan, po'konidan yel o'trnagan,



ko'ngli bosh) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog`lanishga ega emas.[2]

Inson muloqot davomida gaplardan foydalabadi. So`zlar shakily va ma`noviy jihatdan bog`langan bo`ladi. So`zlar bog`lanishi uchun va gap shakliga kelgunicha ma`lum bir tarkibni taqozo qiladi.

*Ular mustaqil so`z turkumlariga mansub bo`ladi;

*so`zlarning ma`nolari o`zaro mos bo`lishi lozim;

*so`zlarni bog`lovchi qo`shimchalar ham o`z o`rnida bo`lishi lozim.

Yordamchi so`z turkumi yoki qo`shimchalardan gap tuza olmaymiz. Masalan, bilan, uchun, kabi, ya`ni, -ga, -dan, ba-, bo-, -la, kabi so`z va qo`shimchalardan ma`no topa olmaymiz. Shuning uchun so`zlar bog`lanishi uchun mustaqil so`z turkumlariga mansub bo`lishi talab qilinadi. Masalan, xat yozmoq, maktabga bormoq, kitob varaqlamoq, maktab bog`i.

So`zlar ma`noviy jihatdan mos tanlanishi kerak. Misol uchun, qush so`ziga sayradi so`zi mos keladi. Hangradi, maradi, kishnadi kabi so`zlar emas. Nutqimizda ma`nosi mos bo`lmagan so`zlarni bir-biriga bog`lash uslubiy xatolikni yuzaga keltiradi.

So`zlarni bog`lashga xizmat qiluvchi qo`shimchalar ham o`z o`rnida bo`lishi lozim. Toshkentda yashayman, ukamning daftari birikmasida qo`shimchalar to`g`ri qo`llanilgan. Toshkentga yashayman, ukamni daftari birikmasida qo`shimchalar xato qo`llanilgan. Ammo ba`zi shevalarda kelishik qo`shimchalarini bir-biri bilan almashtirib qo`llash kabi holatlarni kuzatamiz. Ayniqsa, shahar shevalarida. Masalan, Kattaqo`rg`on shahar shevasida o`rin payt -da kelishigi o`rnida -ga jo`nalish kelishigidan foydalanishadi. Uydaman so`zini uygaman tarzida talaffuz qilishadi. Kelishiklarni biri o`rnida birini ishlatsak, kelishiklarni qo`llash bo`yicha xatolikmi keltirib chiqadi. Lekin kelishiklarning ma`nodosh kelishi xato hisoblanmaydi. Olmani yemoq, olmadan yemoq. Biroq bu birikmalarning ma`nosi farqlanadi.

So`zlarning gapdagi bog`lanishi **sintaktik aloqa**, sintaktik aloqani o`rganuvchi bo`lim **sintaksis** deyiladi.[3]

Sintaktik aloqa deganda odatda ikki so`zning o`zaro bog`lanishi tushuniladi. Aslida sintaktik aloqa bundan ko`ra kengroq tushunchani o`z ichiga oladi. U gapda so`zlar va so`z birikmalarini o`zaro bog`lanishni bildirish bilan birga, nutqda gaplarning ma`lum usul va vositalar yordamida bir-birlari bilan bog`lanishini ham bildiradi.[4] Sintaktik aloqa sodda so`zlarni ham bog`lashga xizmat qiladi. Bahor keldi. Tabiat jonlandi. Kunlar isiy boshladi. Dehqonlar dala tomon yo`l olishdilar. Bu



gaplarda mantiqiy munosabat mavjud, ammo sintaktik aloqa yo`q. Agar ushbu gaplarni qo`shma gapga aylantirsak ham mantiqiy munosabat va sintaktik aloqa paydo bo`ladi. Ya`ni, bahor kelgach tabiat jonlanib, kunlar isiy boshladi. Shu sababli dehqonlar dala tomon yo`l olishdilar.

Sintaktik aloqani yuzaga chiqaruvchi birliklar mavjud. Bular: affikslar, yordamchi so`zlar tartib va intonatsiya.

*8-sinf Ona tili darsligida 59-mashq sintaktik aloqa hosil qilishga qaratilgan.

Qush, uya;	qush ning uyasi;
yurt, ketmoq;	yur tdan ketmoq;
ayrilmoq, el;	ayr ilgan el;
vatan, qadr;	vat anni qadrlamoq;
inson, vatansiz;	vatans iz inson;
g`am,el;	g`a mli el
yurt, yuksalmoq;	yur tning yuksalishi;
tug`ilmoq; yer.	tug`i lgan yer.

Bilib oling*

Mustaqil so`zlarning nutqda bog`lanishidan so`z birilmasi hosil bo`ladi. So`z birikmasi bo`lishi uchun:

- 1) kamida ikkita mustaqil so`z bo`lishi lozim;
- 2) bu so`zlar ma`no jihatdan mos bo`lishi kerak;
- 3) so`zlarning biri ikkinchisiga ergashishi kerak, ya`ni tobelanishi zarur;
- 4) qo`shimcha va yordamchi so`zlar mustaqil so`zlarni bog`lashi kerak.[5]

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so`zdan tuzilib, bir grammatik butunlik, semantik ya`ni ma`noviy yaxlitlik tashlik qilgan har bir birikuv so`z birikmasi sanaladi.[6] So`z birikmasi 2 turga bo`linadi:

1.Otli so`z birikmasi	2.Fe`lli so`z birikmasi
*Hokim so`z ot va otlashgan so`zlar bilan ifodalanadi.	*Hokim qismi fe`l so`z turkumi bilan ifodalanadi.
Sovg`aning to`rttasi	Xatni o`qimoq
Onam uchun sovg`a	Tez o`qimoq
Chiroyli qiz	Zavq bilan o`qimoq



So‘z birikmasining turi va bog‘lanish usullariga doir qoidalar 2014-yilda chop etilgan “Ona tili” darslikda to‘xtalib o‘tilgan. Ammo amaldagi darsliklarda qisqartirishlarga ko‘zimiz tushadi. Bu o‘qituvchiga yana bir karra mas‘uliyat yuklandi degani. Ya‘ni mashqlar yordamida, o‘z malaka va tajribalari asosida mavzuni o‘quvchilarga yetkazishi talab etiladi.

* **Bilib oling.** So‘z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so‘zning hech qanday qo‘shimchasiz, faqat ohang va ma‘nosiga ko‘ra bog‘lanishi **bitishuv** deyiladi: fez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o‘quvchi, mehribon murabbiy.

Tobe so‘zning hokim so‘zga tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi **boshqaruv** deyiladi: do‘stlarni hurmat qilmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilmoq, sharoitga ko‘ra yondashmoq.

Tobe so‘zning hokim so‘zga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi yordamida, hokim so‘zning esa tobe so‘zga egalik qo‘shimchalari yordamida bog‘lanishi **moslashuv** deyiladi: kitobning muqovasi, xonalarning kattarog‘i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.[7]

So‘z birikmasining bog‘lanish usullariga doir metodlardan biri “O‘z uyingni top”. O‘quvchilar guruhga bo‘linib, ularga bir matn beriladi, matn ichidan moslashuv, bitishuv, boshqaruv usulidagi bog‘lanishlar topiladi va o‘z uychariga solinadi. Bundan tashqari, “So‘z birikmasini hosil qilish va ular yordamida gap tuzish”, “berilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘ying va so‘z birikmasini tuzing” kabi topshiriqlar berish orqali mavzu mustahkamlanadi.

*Topshiriq. Matnni diqqat bilan o‘qing va so‘z birikmasining birikish usullatini topishda “O‘z uyingni top” metodidan foydalaning.

Charxpalak

Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim... yog‘och gardishi ko‘hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko‘kimsir suv o‘tlari yopishgan... birov yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... charxpalak nolali g‘iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi... tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... charxpalak ham bunga ranjmaydi. Yangidan-yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi... g‘iyqillaydi... Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo‘ldi. Nega shunday bo‘lganini uzoq o‘yladim... So‘ng... bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo‘msar



ekanman. Suv-suv emas, men ekanman! Charxpalak- charxpalak emas, o'qituvchilarim ekan! Meni-bir tomchi suvni katta hayot yo'liga olib chiqib qo'ygan ustozlarim-charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?... Bilmadim. ...Ko'hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi...

So'zlar bog'lanishda oldin kelgan so'z **tobe so'z**, keyin kelgan so'z **hokim so'z** deyiladi. Tobe qism hokim qismining ma'nosini to'ldirish hamda izohlashga xizmat qiladi. Ammo ba'zi bog'lanishlar biri ikkinchisini izohlamaydi. Masalan, kitob va daftar, yer va osmon, ona va bola, Karima, Odina kabi.

Tobe so`z	Hokim so`z
Bilimli	Bola
Suvdan	Ichmoq
kitobning	varag`i

Teng bog`lanish
Aka va uka
Ustoz va shogird
O`qidi va so`zladi
Daftar, qalam.

Savol va topshiriq

1. Gap nimadan tashkil topadi?
2. So'z birikmasi uchun qanday so'zlar zarur?
3. So'z birikmasida mazmuniy aloqa qayerda ko`rinadi?
4. Sintaktik aloqa nima?
5. O`qigan badiiy asarlaringizdan so'z birikmalarini toping.

Uyga vazifa

MASHQ. Har bir qatordagi so'zlarni bir-biriga bog`lab, so'z birikmalar tuzishni mashq qiling.

- 1) BORMOQ, MAKTAB, SARI, SHAHAR, O`QIMOQ;
- 2) suv, buloq, tinchlik, maqtanmoq;
- 3) o`zga, yurt, cho`l, gul;
- 4) tog`, chiqmoq, el, suyanmoq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.Toshkent sh.2019-yil 21-oktabr,PF-5850-son
2. R.Sayfullayeva.Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent-2010.-B-276.
3. Qodirov M, Ne'matov H, Abduraimova M, Sayfullayeva R, Mengliyev B .Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.-T.:Cho'lpon.2019.b-33.
4. O`zbek tili grammatikai.2-jild.Sintaksis.Toshkent-1976.-B.5.
5. Qodirov M, Ne'matov H, Abduraimova M, Sayfullayeva R, Mengliyev B .Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.-T.:Cho'lpon.2019.b-33.
6. A.F.G'ulomov, M.A. Asqarova "Hozirgi O'zbek adabiy tili", "O'qituvchi" nashriyoti.-T.:1965.b-7.
7. Qodirov M, Ne'matov H, Abduraimova M, Sayfullayeva. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.-T.:Cho'lpon.2014.b-25.
8. O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan.